



## INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA OTA-ONA VA JAMOATCHILIKNING O'RNI

*Andijon davlat pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lim va maxsus pedagogika fakulteti  
Maxsus pedagogika (Logopediya) yo'nalishi talabasi  
Andijon shahar 24-umumta'lim maktabi  
Inklyuziv ta'lim bo'yicha maxsus pedagog  
Axunova Odinaxon Abduvohidovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalar hamda jamoatchilik tashkilotlarining ta'lim muassasalari bilan hamkorligi masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilarning umumta'lim muhitiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi, ularning ijtimoiylashuvi va psixologik farovonligini ta'minlashda ota-onalarning faol ishtiroki hamda jamoa tashkilotlarining qo'llab-quvvatlovchi roli yoritib berilgan. Shuningdek, inklyuziv ta'lim jarayonida uchraydigan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, ota-onalar hamkorligi, jamoatchilik tashkilotlari, integratsiya, maxsus pedagog, ijtimoiylashuv.

**Аннотация:** в данной статье анализируются вопросы сотрудничества родителей и общественных организаций с образовательными учреждениями в процессе инклюзивного образования с научной, теоретической и практической точки зрения. Подчеркивается активное участие родителей и поддерживающая роль общественных организаций в обеспечении успешной интеграции учащихся с особыми образовательными потребностями в общеобразовательную среду, их социализации и психологического благополучия. Также разработаны практические рекомендации по основным проблемам, возникающим в процессе инклюзивного образования, и путям их устранения.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, родительское сотрудничество, общественные организации, интеграция, специальный педагог, социализация.

**Abstract:** this article analyzes the issues of cooperation between parents and public organizations with educational institutions in the process of inclusive education from a scientific, theoretical and practical point of view. The active participation of parents and the supporting role of public organizations in ensuring the successful integration of students with special educational needs into the general education environment, their



## Learning and Sustainable Innovation

socialization and psychological well-being are emphasized. Practical recommendations have also been developed on the main problems arising in the process of inclusive education and ways to eliminate them.

**Keywords:** inclusive education, parental cooperation, public organizations, integration, special teacher, socialization

**Kirish:** Bugungi kunda inklyuziv ta'limni rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning nutqlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4869-sonli "2021–2025-yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish strategiyasi" to'g'risidagi qarorida barcha bolalar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish masalasi alohida ta'kidlangan. Inklyuziv ta'lim faqatgina ta'lim muassasasi faoliyati bilangina cheklanib qolmay, balki ota-onalar, jamoatchilik tashkilotlari va mutaxassislar o'rtasidagi uzviy hamkorlikni talab etadi. Mazkur maqolaning maqsadi — inklyuziv ta'lim jarayonida ota-ona va jamoatchilikning o'rnini yoritish hamda samarali hamkorlik mexanizmlarini ochib berishdan iborat.

Inklyuziv ta'lim — bu barcha bolalarning, jumladan alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilarning ham umumiy ta'lim muhitida teng sharoitlarda bilim olishini ta'minlovchi ta'lim tizimidir. Ushbu yondashuv bolaning jismoniy yoki psixologik holatidan qat'i nazar, uning ta'lim olish huquqini kafolatlaydi.

Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillaridan biri — imkoniyati cheklangan bolalarning oilada tarbiyalanishi va sog'lom tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda ta'lim olishi orqali ijobiy ijtimoiy-psixologik rivojlanishini ta'minlashdir.

**Inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalar muhim va ajralmas subyektlardan biri hisoblanadi. Ularning ta'lim jarayonidagi faol ishtiroki bolaning o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabati, bilim olishga qiziqishi, o'ziga bo'lgan ishonchi hamda ijtimoiy muhitga moslashuv darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar farzandining ta'lim jarayonini doimiy kuzatib borish, maktab jamoasi bilan uzluksiz hamkorlik qilish orqali bolaning individual ehtiyojlarini aniqlash va ularni qondirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ota-onalarning ruhiy va emotsional qo'llab-quvvatlovi bolada ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi hamda uning ta'lim jarayonidagi faolligini oshiradi. Oilada tenglik, bag'rikenglik va sog'lom muhitni yaratish esa alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarning o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his etishiga xizmat qiladi. Ayrim holatlarda bunday bolalar kamsitilish yoki yakkalanish holatlariga duch kelishi**



mumkin. Bunday vaziyatlarda ota-onalarning vazminligi, ijobiy munosabati va farzandini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan faol harakati bolaning ruhiy barqarorligini saqlash va salbiy holatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta'lim jarayonining samarali tashkil etilishida maktab psixologi va boshqa mutaxassislarning faoliyati alohida ahamiyatga ega. Psixologning asosiy vazifasi bolaning ruhiy salomatligini muhofaza qilish, uning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash hamda rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan psixologik qiyinchiliklarni aniqlash va korreksiyalashdan iboratdir. Psixolog tomonidan bolalar bilan olib boriladigan diagnostik ishlar orqali ularning individual psixologik xususiyatlari o'rganiladi hamda ushbu ma'lumotlar asosida individual rivojlantirish dasturlari ishlab chiqiladi. Shuningdek, psixolog ota-onalarga farzandlarini to'g'ri tarbiyalash va qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahatlar berib boradi, pedagoglarga esa inklyuziv ta'lim sharoitida ishlashda psixologik va metodik yordam ko'rsatadi. Mutaxassislar bilan hamkorlikda olib borilgan tizimli ishlar bolaning ta'lim jarayoniga moslashuvini yengillashtirib, uning shaxs sifatida rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'limning samaradorligi jamoatchilik tashkilotlarining faol ishtiroki bilan chambarchas bog'liqdir. Nodavlat notijorat tashkilotlari, nogironlar uyushmalari, mahalla fuqarolar yig'inlari hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazlari inklyuziv ta'lim jarayonining muhim hamkorlari hisoblanadi. Ushbu tashkilotlar ta'lim muassasalariga texnik va metodik yordam ko'rsatish, pedagoglar va ota-onalar uchun trening hamda seminarlar tashkil etish orqali ta'lim sifatini oshirishga hissa qo'shadi. Shuningdek, jamoatchilik tashkilotlari jamiyatda alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, inklyuziv madaniyatni rivojlantirish va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Davlat va ta'lim tizimi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali esa inklyuziv ta'lim siyosatini takomillashtirishga o'z hissasini qo'shadi.

Inklyuziv ta'lim jarayonida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular ta'lim sifatiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Xususan, ota-onalarning inklyuziv ta'lim bo'yicha yetarli bilim va tasavvurga ega emasligi, pedagoglar yuklamasining yuqoriligi hamda moddiy-texnik va metodik resurslarning cheklanganligi shular jumlasidandir. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida ota-onalar uchun muntazam o'quv-seminarlar va ma'rifiy tadbirlar tashkil etish, assistent pedagoglar faoliyatini yo'lga qo'yish hamda jamoatchilik tashkilotlari va grant loyihalarini ta'lim jarayoniga keng jalb etish muhim



ahamiyat kasb etadi. Bunday chora-tadbirlar inklyuziv ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga va barcha bolalar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratishga xizmat qiladi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi — har bir bola uchun teng ta'lim imkoniyatini yaratishdir. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati ota-onalar, ta'lim muassasalari va jamoatchilik tashkilotlari o'rtasidagi samarali hamkorlikka bog'liq. Ota-onalarning faol ishtiroki va jamoa tashkilotlarining qo'llab-quvvatlovi nafaqat alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning rivojlanishiga, balki jamiyatda bag'rikenglik va adolatli munosabatlar shakllanishiga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4869-sonli Qarori. “2021–2025-yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish strategiyasi”.
3. UNESCO. *Inclusive Education: Ensuring Access to Education for All*. – 2020.
4. UNICEF. *The State of the World's Children*. – 2021.
5. European Agency for Special Needs and Inclusive Education. *Inclusive Education in Europe*. – 2018.
6. Axmedovna V.T. *Inklyuziv ta'lim va gospiatal pedagogika*. O'quv qo'llanma. – Andijon, 2025.